

VI. TRANSPORT

Yuk tashish. 2024-yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transporti tomonidan 30,0 mln. tonna yuk tashilgan bo‘lib, o‘shish sur‘ati 2023-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 106,4 % ni tashkil qildi.

Yuk aylanmasi avtomobil transporti turlari tomonidan 825,2 mln. tn-km.ni tashkil etdi va 2023-yilning yanvar-iyuniga nisbatan o‘shish sur‘ati 109,2 % ni tashkil qildi.

Avtomobil transportida yuk tashish va yuk aylanmasi

	<i>2024-yil yanvar-iyun</i>	<i>2023-yilning yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida</i>
Tashilgan yuk, <i>mln. tn</i>	30,0	106,4
Yuk aylanmasi, <i>mln. tn-km</i>	825,2	109,2

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportining yuk aylanmasining o‘shish sur‘ati 2023-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 100,8 % ni tashkil etdi va 414,0 mln. tn-km. ga yetdi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 85,9 % ni tashkil etdi (2023-yilning yanvar-iyunida 89,8 foiz).


Samarqand viloyatining shahar va tumanlar bo‘yicha tashilgan yuk bo‘yicha yetakchi o‘rinni Samarqand shahri (4 579,7 ming tonna) egallaydi. Shu bilan birga, eng yuqori tonnani Samarqand (2 238,2 ming tonna) va Bulung‘ur (2 052,8 ming tonna) tumanlarida kuzatildi.

Shahar va tumanlar kesimida yuk tashish, ming tonna
(2024-yil yanvar-iyun)

	<i>Jami tashilgan yuk ming tonna</i>	<i>2023-yil yanvar- iyunga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>
Samarqand viloyati	30 041,9	106,4	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Samarqand sh.	4 579,7	108,5	15,2
Kattaqo'rg'on sh.	3 162,3	105,0	10,5
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	1 516,0	104,2	5,0
Bulung'ur	2 052,8	107,4	6,8
Jomboy	1 759,7	107,6	5,9
Ishtixon	1 736,7	105,5	5,8
Kattaqo'rg'on	1 551,9	107,3	5,2
Qo'shrabot	1 149,2	103,2	3,8
Narpay	1 206,3	105,3	4,0
Payariq	1 491,8	107,4	5,0
Pastdarg'om	1 979,4	107,8	6,6
Paxtachi	1 265,1	105,4	4,2
Samarqand	2 238,2	106,2	7,5
Nurobod	1 416,1	103,5	4,7
Urgut	1 616,8	107,9	5,4
Toyloq	1 319,8	106,6	4,4

Ko'rsatilgan yuk tashishda yuqori bo'lmagan ko'rsatkichlar Narpay (1 206,3 ming tonna), Paxtachi (1 265,1 ming tonna) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Tashilgan yukning umumiy hajmida shahar va tumanlarning ulushi, % da (2024-yil yanvar-iyun)



Hududlar bo'yicha tashilgan yukning yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Samarqand shahar (15,2 foiz) egalladi. Shu bilan birga Samarqand (7,5 foiz) va Bulung'ur (6,8 foiz) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.

Samarqand viloyatining yuk aylanmasi hajmida yetakchi o'rinni Samarqand shahri (327 766,6 ming tonna-km) egalladi. Shu bilan birga eng yuqori ko'rsatkich Qo'shrabot (327 375,3 ming tonna-km) va Bulung'ur (34 799,5 ming tonna-km) tumanlarida kuzatildi.


Shahar va tumanlar kesimida yuk aylanmasi,

ming tonna-km

	<i>ming tonna-km</i>	<i>2023-yil yanvar-iyunga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>
Samarqand viloyati	825 155,6	109,2	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Samarqand sh.	327 766,6	110,9	39,7
Kattaqo'rg'on sh.	55 683,6	108,5	6,7
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	28 946,6	108,2	3,5
Bulung'ur	34 799,5	108,7	4,2
Jomboy	28 500,0	109,7	3,5
Ishtixon	33 805,7	108,8	4,1
Kattaqo'rg'on	33 628,8	108,2	4,1
Qo'shrabot	37 375,3	105,8	4,5
Narpay	25 197,2	106,0	3,1
Payariq	31 761,2	108,0	3,8
Pastdarg'om	30 665,8	108,4	3,7
Paxtachi	27 795,7	108,8	3,4
Samarqand	31 049,1	109,4	3,8
Nurobod	29 582,3	106,8	3,6
Urgut	33 933,9	109,3	4,1
Toyloq	34 664,3	108,3	4,2

Ko'rsatilgan yuk aylanmasidagi yuqori bo'lmagan tonna-km quyidagi shahar va tumanlar Narpay (25 197,2 ming tonna-km), Nurobod (29 582,3) ming tonna-km tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Tashilgan yuk aylanmasining umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da (2024-yil yanvar-iyun)



Hududlar bo'yicha tashilgan yuk aylanmasining yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Samarqand sh. (39,7 foiz) shahri egalladi. Shu bilan birga Qo'shrabot (4,5 foiz) va Bulung'ur (4,2 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Aholiga, shu jumladan, iqtisodiyotning barcha sohasida faoliyat ko'rsatayotgan ishchi-xizmatchilarga, o'quv muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchi va talabalarga yuqori sifatli transport xizmatini ko'rsatish, avtomobil transporti oldida turgan eng muhim masaladir. Bugungi kunda hech bir fuqaro harakatini (bir manzildan boshqa bir manzilga borishni) transportsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Yo'lovchi tashish. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportining barcha turlari tomonidan 229,3 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,3 % ni tashkil etdi.

Avtomobil transport yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

	<i>2024-yil yanvar-iyun</i>	<i>2023-yilning yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida</i>
Transportda tashilgan yo'lovchilar, <i>mln. kishi</i>	229,3	108,3
Yo'lovchi aylanmasi, <i>mln. yo'lovchi-km</i>	7 674,7	109,0

Jami avtomobil transportidagi yo'lovchi aylanmasi 2023-yil yanvar-iyuniga nisbatan 109,0 % ga yetdi va 7 674,7 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil qildi.


Viloyatning shahar va tumanlarida yo'lovchi tashish bo'yicha yetakchi o'rinni Samarqand shahri (27 837,6 ming kishi) egalladi. Shu bilan birga, eng yuqori ko'rsatkichlar Pastdarg'om (16 998,2 ming kishi) va Paxtachi (16 770,6 ming kishi) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida yo‘lovchi tashish, ming kishi
(2024-yil yanvar-iyun holatiga)

	<i>ming kishi</i>	<i>2023-yil yanvar-iyunga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>
Samarqand viloyati	229 320,4	108,3	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Samarqand sh.	27 837,6	113,5	12,1
Kattaqo‘rg‘on sh.	17 757,2	107,1	7,7
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	14 000,4	107,6	6,1
Bulung‘ur	13 783,7	107,8	6,0
Jomboy	12 170,2	108,0	5,3
Ishtixon	10 085,7	104,7	4,4
Kattaqo‘rg‘on	12 768,4	106,8	5,6
Qo‘shrabot	9 933,5	102,6	4,3
Narpay	11 178,7	107,2	4,9
Payariq	12 067,4	107,4	5,3
Pastdarg‘om	16 998,2	107,9	7,4
Paxtachi	16 770,6	107,3	7,3
Samarqand	16 188,8	111,5	7,1
Nurobod	10 360,6	104,4	4,5
Urgut	13 390,8	111,1	5,8
Toyloq	14 028,6	110,0	6,1

Ko'rsatilgan yo'lovchi tashishda nisbatan uncha yuqori bo'lmagan ko'rsatkichlar, Qo'shrabot (9 933,5 ming kishi) va Ishtixon (10 085,7 ming kishi) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Tashilgan yo'lovchining umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da
(2024-yil yanvar-iyun)



Shahar va tumanlar kesimida tashilgan yo'lovchining yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Samarqand (12,1 foiz) shahri egalladi. Shu bilan birga Pastdarg'om (7,4 foiz), Paxtachi (7,3 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatning yo'lovchi aylanmasi hajmida yetakchi o'rinni Samarqand (1 344,5 mln. yo'lovchi-km) shahri egalladi. Shu bilan birga eng yuqori ko'rsatkich bilan Pastdarg'om (559,6 mln. yo'lovchi-km), Payariq (500,3 mln. yo'lovchi-km) tumanlarida kuzatildi.


Shahar va tumanlar kesimida yo‘lovchi aylanmasi

mln. yo‘lovchi-km

	mln. yo‘lovchi-km	2023-yil yanvar-iyunga nisbatan foiz hisobida	jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida
Samarqand viloyati	7 674,7	109,0	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Samarqand sh.	1 344,5	110,2	17,5
Kattaqo‘rg‘on sh.	497,5	105,8	6,5
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	495,5	108,6	6,5
Bulung‘ur	488,9	109,0	6,4
Jomboy	379,2	109,9	4,9
Ishtixon	315,2	108,4	4,1
Kattaqo‘rg‘on	403,3	108,8	5,3
Qo‘shrabot	247,1	107,6	3,2
Narpay	335,6	108,1	4,4
Payariq	500,3	109,8	6,5
Pastdarg‘om	559,6	109,7	7,3
Paxtachi	462,7	108,6	6,0
Samarqand	492,6	110,0	6,4
Nurobod	278,9	108,5	3,6
Urgut	448,7	109,4	5,8
Toyloq	425,2	109,1	5,5

Ko‘rsatilgan yo‘lovchi aylanmasidagi uncha yuqori bo‘lmagan yo‘lovchi-km Qo‘shrabot (247,1 mln. yo‘lovchi-km) va Nurobod 278,9 mln. yo‘lovchi-km) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Tashilgan yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida
hududlarning ulushi, % da**
(2024-yil yanvar-iyun)



Shahar va tumanlar bo‘yicha yo‘lovchi aylanmasining yuqori ulushi bo‘yicha yetakchi o‘rinni Samarqand (17,5 foiz) shahri egalladi. Shu bilan birga Pastdarg‘om (7,3 foiz), Oqdaryo (6,5 foiz) tumanlarida kuzatildi.

**Transport turlari bo‘yicha yuk tashish, yuk aylanmasi,
yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi**
(2024-yil yanvar-iyun oylarida)

